

Harbiy qismga tashrif

2019 yilning 15-16 may kunlarida TIQXMMI harbiy kafedrasи 10, 11 va 12 guruh talabalari amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va harbiy qism faoliyati bilan tanishish maqsadida 44868 - harbiy qismga tashrif buyurishdi.



Harbiy qism komandirining o'rinnbosari kapitan Matyaqubov E. talabalarni 15 may kuni kutib olib va ularga harbiy qism hududidagi xavfsizlik choralarini, kun tartibi, hamda amaliy mashg'ulotlar rejasini yetkazib tadbirni boshlab berdi. 44868 - harbiy qism bo'linmasi boshlig'i kapitan Xudoyberganov Sh. talabalarga Topogeodezik maxsus ishlarni amaliy bajarishdan oldin, optikali teodolit va elektron taxeometrni soz holatini tekshirish, hamda ishga tayyorlash to'g'risida bat afsil ma'lumot berdi.



Talabalarning ikkinchi gruppasi kapitan Matyaqubov E. boshchiligidagi avtomat AK-74 va pistolet PM ni noto'liq qismlarga yoyish, hamda yig'ish mashqlarini bajarishni o'rganib amaliy mashg'ulotga kirishishdi. Mashg'ulot davomida talabalar harbiy qismdagi sutkalik naryadning vazifalari va ularning majburiyatlari bilan tanishishdi. Harbiy qism hududidagi amaliy mashg'ulotlarning ikkinchi kuni shaxsiy tarkibning ertalabki tarqatuvi, saf ko'rige va dala yuk xaltasini tekshirish bilan boshlandi. Unda talabalar shaxsiy tarkibning xatti - harakatini kuzatib turishdi, xususan dala yuk xaltasining ichidagi anjomlar ularda katta qiziqish uyg'otdi.



Saf ko'riganidan keyin talabalar bilan ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalanish mashg'uloti o'tkazildi. Talabalar navbatdagi o'quv nuqtasida taktik-o'quv mashg'ulotlarni bajarish bilan bir qatorda patronni o'qdonga joylash mashqini ham amaliy bajarishdi. TIQXMMI harbiy kafedrasи katta o'qituvchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi (zaxiradagi podpolkovnik) Navruzov R.M. 44868 - harbiy qism qo'mondonligiga harbiy kafedra rahbariyati, talabari va o'zining nomidan katta minnatdorchilik bildirdi hamda TIQXMMI rektori nomidan "Tashakkurnoma" yorlig'ini kapitan Matyaqubov E.ga topshirdi.



TIQXMMI harbiy kafedrasи katta o'qituvchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi (zaxiradagi podpolkovnik) Navruzov R.M. axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov